

---

## KUTUBXONACHILARNING KASBIY BILIM VA KO'NIKALARINI OSHIRISH BO'YICHA SEMINAR BO'LIB O'TDI

Farg'ona viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi hamda viloyat bolalar kutubxonasi hamkorligida umumta'lim maktab kutubxonachilarini malakasini, kasbiy bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida Toshloq tumanida seminar o'tkazildi.

Unda umumta'lim maktablarining 47 nafar kutubxonachilari uchun "Kutubxonalarda mavjud me'yoriy hujjatlar bilan ishlash va ularni yuritish tartibi" hamda "Maktab kutubxonalarida bibtexnika vositalarini yuritish tartibi" mavzusida tushunchalar berildi.

Ta'kidlandiki, o'quvchini kitobga bo'lgan qiziqishini oshirishda, ma'naviyatini yuksaltirishda albatta kutubxonachi o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lishi, kasbiy bilim va ko'nikmasini oshirishi zarur. Seminarda Farg'ona viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari M.Odilxo'jayeva, ma'naviyat bo'limi sho'ba mudiri G.Qo'chqorova hamda viloyat bolalar kutubxonasi mutaxassislari ishtirok etdilar.

Seminar ishtirokchilariga tumandagi 6-, 12-umumta'lim maktabi kutubxonachilari tomonidan mavzu asosida nazariy bilimlar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi. Shuningdek, seminarda yangi 2023-2024-o'quv yilida o'quvchilarni kutubxonaga jalb qilishda individual yondashuvlar, g'oyalar berildi.

2023-08-18 16:08:05